



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 251 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 180 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 379,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 112,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 50,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 122,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 329,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 385,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 127,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1379,5	112,6
Termiz sh.	233,8	110,8
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	64,3	110,1
Angor	69,1	116,9
Bandixon	24,6	114,8
Boysun	60,9	118,9
Muzrabot	64,7	112,0
Denov	273,9	109,6
Jarqo'rg'on	73,1	110,4
Qumqo'rg'on	69,8	118,9
Qiziriq	64,5	114,0
Sariosiyo	57,9	110,9
Termiz	31,4	116,9
Uzun	68,3	115,9
Sherobod	87,5	116,7
Sho'rchi	135,7	111,1


2024-yilning yanvar oyida 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Qumqo'rg'on (118,9 %), Boysun (118,9 %) va Angor (116,9 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)




So'ngi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023-yil, 2024-yil yanvar oylari)



2024-yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **112,6 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 19,9 % bilan 273,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,8 % bilan 24,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm







Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 329,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 12,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,4 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 22,1 % ga oshdi va 50,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,4 %) va Angor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (8,8 %), Denov (6,0 %), Jarqo'rg'on (3,4 %) va Sherobod (3,0 %) tumanlarida kuzatildi.

3,6 %


96,4 %

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so’mda*



2024-yilning yanvar oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 485,4 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 109,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (1 177,1 ming. so‘m), Denov (660,4 ming. so‘m) va Sho‘rchi (601,2 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	385,0	127,4
Termiz sh.	27,3	156,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	31,7	110,7
Angor	13,8	104,0
Bandixon	18,6	117,7
Boysun	25,0	150,2
Muzrabot	33,4	118,6
Denov	40,6	119,8
Jarqo'rg'on	20,9	123,2
Qumqo'rg'on	26,4	126,4
Qiziriq	26,4	124,2
Sariosiyo	25,2	112,5
Termiz	14,5	151,9
Uzun	28,7	126,9
Sherobod	23,1	199,1
Sho'rchi	29,4	127,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 385,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 127,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 164,3 mlrd. so'mni (150,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 220,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (114,2 %).













2024-yilning yanvar oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 164,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (78,3 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>78,3 mlrd. so'm</p>  <p>47,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>18,4 mlrd. so'm</p>  <p>11,2 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>15,3 mlrd. so'm</p>  <p>9,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>8,6 mlrd. so'm</p>  <p>5,2 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>5,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>3,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>2,6 mlrd. so'm</p>  <p>1,6 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>6,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,7 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>3,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,3 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>13,0 mlrd. so'm</p> <p>7,9 %</p>

2024-yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 220,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 167,8 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 50,5 mlrd. so'mni, otlar – 1,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>110,4 mlrd. so'm</p>  <p>50,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>30,1 mlrd. so'm</p>  <p>13,6 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>27,3 mlrd. so'm</p>  <p>12,4 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>43,2 mlrd. so'm</p>  <p>19,6 %</p>	<p>Otlar</p> <p>1,9 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>7,3 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 383 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 381 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	38,1	111,2
Termiz sh.	15,1	118,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	0,8	108,9
Angor	1,1	108,4
Bandixon	0,2	103,8
Boysun	0,8	107,2
Muzrabot	1,0	107,3
Denov	6,1	102,8
Jarqo'rg'on	2,2	111,9
Qumqo'rg'on	1,0	108,6
Qiziriq	0,8	111,3
Sariosiyo	1,6	113,0
Termiz	2,6	102,2
Uzun	1,0	108,7
Sherobod	2,2	106,4
Sho'rchi	1,6	115,3

2024-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 38,1 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 97,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	66,9	100,0
Termiz sh.	19,7	29,4
tumanlar:		
Oltinsoy	0,4	0,5
Angor	2,2	3,2
Bandixon	0,0	0,1
Boysun	0,2	0,4
Muzrabot	0,1	0,2
Denov	32,9	49,2
Jarqo'rg'on	5,6	8,3
Qumqo'rg'on	0,3	0,4
Qiziriq	0,3	0,4
Sariosiyo	0,8	1,2
Termiz	1,6	2,5
Uzun	0,1	0,2
Sherobod	0,4	0,6
Sho'rchi	2,3	3,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (32,9 mlrd. so'm) va Termiz shahri (19,7 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 66,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 61,9 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 13,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 18,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 53,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –53,9 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 340,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 333,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 117,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 98,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 155 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 136 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Sariosiyo (2,8 m) va Qiziriq (142,0 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	340,1	104,2
Termiz sh.	79,9	99,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	6,9	77,5
Angor	5,4	82,4
Bandixon	4,5	116,2
Boysun	2,8	114,1
Muzrabot	20,6	103,2
Denov	122,7	110,5
Jarqo'rg'on	15,7	84,3
Qumqo'rg'on	4,8	86,3
Qiziriq	1,9	112,4
Sariosiyo	12,1	118,9
Termiz	27,2	119,3
Uzun	5,3	116,8
Sherobod	7,0	114,7
Sho'rchi	23,3	98,3